IQRO JURNALI , IQRO JOURNAL, ИКРО ЖУРНАЛИ
ISSN:2181-4341| wordlyknowledge.uz/index.php/iqro
Volume 24. Issue 01. Oktabr, 2026

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR LIRIKASIDA “GUL VA XOR” OPPOZITSIYASINING IJTIMOIY-FALSAFIY HAMDA POETIK XUSUSIYATLARI

Xolmatova Tabassum Baxtiyorjon qizi
Farg‘ona davlat universiteti
Adabiyotshunoslik: o‘zbek adabiyoti yo‘nalishi
2-kurs magistranti
ORCID: 0009-0009-8370-7223
E-mail: Tabassumxolmatova60@gmail.com
Tel.: +99890-832-65-05
https://doi.org/10.5281/zenodo.23863921

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada Zahiriddin Muhammad Bobur lirik merosining eng fundamental badiiy o‘qlaridan biri bo‘lgan “gul va xor” (tikan) ziddiyatining ijtimoiy-falsafiy va lingvopoetik qirralari monografik planda tadqiq etilgan. Mumtoz adabiyotdagi an’anaviy lirik obrazlarning Boburning shaxsiy-biografik fojiasi, vatan judoligi va g‘urbat motivlari bilan sintezlashuvi jarayoni konseptual tahlil qilinadi. Shoir ijodidagi tabiat tasvirlari shunchaki statik fon emas, balki ijtimoiy adolatsizlikka qarshi isyon, ichki psixologik dikotomiya va tasavvufiy ramziylik kontekstida ochib berilgan. Tadqiqotda tizimli-badiiy, qiyosiy-tarixiy, germenevtik va lingvopoetik metodlar qo‘llanilib, “Topilmas” radifli g‘azal misolida gul va tikan timsollarining ma’no qatlamlari, ularning shoir shaxsiy qismati hamda ijtimoiy-falsafiy qarashlari bilan bog‘liqligi ochib berilgan. Maqola mumtoz poetik an’ana bilan individual yangilanish uyg‘unligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar, iboralar: Bobur lirikasi, gul va xor, poetik kontrast, ijtimoiy g‘urbat, badiiy dualizm, tasavvufiy ramz, lirik qahramon ruhiyati, Mumtoz poeziya, Sharq estetikasi.

SOCIO-PHILOSOPHICAL AND POETIC FEATURES OF THE “ROSE AND THORN” OPPOSITION IN THE LYRICS OF ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BABUR

Annotation. This scientific article systematically investigates the socio-philosophical and linguo-poetic aspects of the “rose and thorn” (gul va xor) antipode, which constitutes one of the fundamental artistic axes of Zahiriddin Muhammad Babur’s lyrical heritage. The process of synthesizing traditional lyrical imagery of classical poetry with the poet’s personal biographical tragedy, displacement from his homeland, and motifs of alienation is conceptually analyzed. Nature descriptions in Babur’s work are revealed not merely as a static background, but within the context of resistance against social injustice, internal psychological dichotomy, and Sufi symbolism. The study applies systemic-artistic, comparative-historical, hermeneutic and linguopoetic methods and, using the ghazal with the refrain “Topilmas”, reveals the layers of meaning of the rose and thorn images and their connection with the poet’s personal fate and socio-philosophical views.

Keywords and expressions: Babur’s lyrics, rose and thorn, poetic contrast, social alienation, artistic dualism, Sufi symbol, psychology of the lyrical hero, classical poetics, Eastern aesthetics.

IQRO JURNALI , IQRO JOURNAL, ИКРО ЖУРНАЛИ
ISSN:2181-4341| wordlyknowledge.uz/index.php/iqro
Volume 24. Issue 01. Oktabr, 2026

СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЕ И ПОЭТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ОППОЗИЦИИ «РОЗА И ШИП» В ЛИРИКЕ ЗАХИРИДДИНА МУХАММАДА БАБУРА

Аннотация. В данной научной статье в монографическом плане исследуются социально-философские и лингвопоэтические аспекты антипода «роза и шип» (гул ва хор), являющегося одной из фундаментальных художественных осей лирического наследия Захириддина Мухаммада Бабура. Концептуально анализируется процесс синтеза традиционных лирических образов классической литературы с личной биографической трагедией поэта, потерей родины и мотивами чужбины. Картины природы в творчестве поэта раскрываются не просто как статический фон, а в контексте протеста против социальной несправедливости, внутренней психологической дихотомии и суфийского символизма. В исследовании применены системно-художественный, сравнительно-исторический, герменевтический и лингвопоэтический методы; на примере газели с редифом «Топилмас» раскрыты смысловые пласты образов розы и шипа и их связь с личной судьбой и социально-философскими взглядами поэта.

Ключевые слова: лирика Бабура, роза и шип, поэтический контраст, социальное изгнание, художественный дуализм, суфийский символ, психология лирического героя, классическая поэтика, восточная эстетика.

Kirish

Sharq mumtoz she’riyati asrlar davomida inson ma’naviy olami, jamiyat ziddiyatlari va borliq qonuniyatlarini ramziy va majoziy obrazlar vositasida ifodalashning mukammal tizimini shakllantirgan. Ushbu go‘zal an’analarning yirik davomchisi va Temuriylar renessansining eng yorqin namoyandalaridan biri Zahiriddin Muhammad Bobur lirik merosi o‘zining hayotiyligi, hissiy samimiyligi hamda chuqur ijtimoiy-falsafiy asoslari bilan ajralib turadi. Mumtoz she’riyat tizimidagi eng universal, ziddiyatli va semantik jihatdan ko‘p qatlamli badiiy qarama-qarshiliklardan biri, shubhasiz, “gul va xor” (tikan) ziddiyatidir. Bobur lirikasida ushbu juftlik shunchaki oshiqona asarlarning lirik bezagi, ko‘nikilgan an’anaviy qofiya yoki radif asosi sifatida qolmaydi. Ma’lumki, Boburning shaxsiy hayoti va ijtimoiy-siyosiy faoliyati nihoyatda og‘ir, betoqat saltanat kurashlari, yoshlikda taxtdan ayrilish, yaqinlarining xiyonati va pirovardida kindik qoni to‘kilgan Vatandan uzoqlashib, Hindistonda qudratli imperiya barpo etgan bo‘lsa-da, umr bo‘yi g‘urbatda yashash fojialari bilan kechdi. Mana shu real hayotiy va biografik jarayonlar shoir she’riyatidagi “gul va xor” timsoliga yangicha, mislsiz ijtimoiy-dramatik yuklamalar yukladi. Ushbu tadqiqot ishining kirish qismida “gul va xor” konseptual juftligining Bobur dunyoqarashini ochishdagi ahamiyati asoslab beriladi. Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundaki, unda tabiat unsurlari shunchaki statik manzara yoki go‘zallik foni emas, balki shoirning ijtimoiy adolatsizlikka, taqdir zarbalariga qarshi isyoni hamda ichki ruhiy kolliziyalarini ko‘rsatuvchi muhim badiiy asbob sifatida o‘rganiladi. Shoir ijodidagi dialektik tafakkur — quvonch va g‘amning, vafodorlik va jafokorlikning, ona yurt sog‘inchi va muhojirlik azoblarining aynan mana shu badiiy o‘q atrofida aylanishi uning tabiat lirikasini yangi ilmiy aspektda tadqiq etish zaruratini keltirib chiqaradi. Bobur lirik qahramoni o‘z his-tuyg‘ularini tabiat hodisalari bilan shunchalik parallel ravishda bog‘laydiki, natijada uning she’riyatida tabiat inson qalbi va jamiyat qiyofasini

aks ettiruvchi ko‘zguga aylanadi. Maqolada ushbu ko‘zguning ijtimoiy-falsafiy hamda poetik qirralarini ochish, Bobur mahoratining o‘ziga xos qirralarini an’ana va yangilanish mezonlari asosida aniqlash bosh maqsad etib belgilangan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Mavzuning o‘rganilish darajasi

Zahiriddin Muhammad Boburning ko‘p qirrali ijodiy va ilmiy merosi, xususan, uning shoh asari bo‘lmish “Boburnoma” hamda lirik devoni jahon va o‘zbek adabiyotshunosligida doimiy ravishda diqqat markazida bo‘lib kelgan [1]. E. Azizxo‘jayev “Boburnoma”ni tarixiy xotira bilan birga yuksak badiiy-estetik qimmatga ega asar sifatida talqin qiladi [1]. Olim asarda muallifning shoirona nigohi va nafis tasvir mahorati yaqqol seziladi, degan xulosaga tayanadi [1]. Dastlabki davrlarda xorijiy sharqshunoslar va tarixchilar (V. Erskine, A. Beverij, R. Uilyams, E. Holden) asosan Boburning buyuk sarkarda, davlat arbobi va tarixchi sifatidagi faoliyatiga hamda “Boburnoma” asarining tarixiy-geografik, etnografik xususiyatlariga yuqori baho bergan edilar. Ularning ishlarida Bobur she’riyati ko‘pincha uning siyosiy biografiyasini to‘ldiruvchi yordamchi material sifatida qaralgan. Yurtimiz adabiyotshunosligida esa Bobur shaxsiyati va uning badiiy mahoratini tizimli o‘rganish o‘tgan asrning o‘rtalaridan boshlab yangi bosqichga ko‘tarildi. Akademik V. Abdullayev, taniqli bobur shunos olima A. Azimjanova, professorlar H. Qudratullayev, S. Hasanov [2], R. Vohidov, shuningdek, H. Yoqubov [3], A. Abdug‘afurov [4], N. Mallayev [5] kabi tadqiqotchilar shoir adabiy merosini matniy va g‘oyaviy jihatdan chuqur tahlil qildilar. Xususan, H. Yoqubov Bobur lirikasida shaxsiy kechinma va g‘urbat dardi asosiy g‘oyaviy yo‘nalish ekanini ko‘rsatadi [3], shoirning qalb iztirobi haqiqiy hayotiy tajribadan kelib chiqqanini ta’kidlaydi [3]. A. Abdug‘afurov Bobur ijodiyotini shoir hayot yo‘li va davr muhiti bilan bog‘liq holda o‘rganish zarurligini asoslaydi [4], uning she’riyatida an’ana va yangilik uyg‘unligiga e’tibor qaratadi [4]. N. Mallayev Boburni o‘zbek mumtoz she’riyati an’analarining davomchisi sifatida baholaydi [5], uning ijodini XV–XVI asrlar adabiy jarayonining muhim bo‘g‘ini deb biladi [5]. Xususan, S. Hasanov o‘z ilmiy ishlarida Bobur devonining janrlar tarkibini, qofiya va radiflar tizimini hamda badiiy san’atlardan foydalanish mahoratini batafsil yoritib berdi [2]. Olimning fikricha, Bobur she’riyatida an’anaviy obrazlar shoirning shaxsiy tajribasi bilan boyib, yangicha ma’no kasb etadi [2]; uning tahlilida so‘z va obraz tanlashdagi soddalik hamda samimiylik alohida qayd etiladi [2]. H. Qudratullayev esa shoirning adabiy-estetik qarashlarini tahlil qilib, uning she’riyatidagi realizm va hayotiylik elementlarini asosladi. Shuningdek, so‘nggi yillarda yaratilgan adabiy tadqiqotlarda Bobur she’riyatidagi vatanparvarlik, g‘urbat motivlari va inson ruhiyati tasviri (N. Olimova, H. Eshonqulov) keng yoritildi. Biroq shoir lirikasidagi tabiat obrazlari, xususan, klassik poeziya tizimida o‘ta mustahkam o‘ringa ega bo‘lgan “gul va xor” (tikan) konseptual antipodining lirik qahramon ichki dikotomiyasini ochishdagi sotsio-psixologik funksiyasi alohida monografik yoki maxsus tadqiqot obyekti sifatida yaxlit holatda tizimlashtirilmagan. Mavjud adabiyotlarda bu obrazlar ko‘proq an’anaviy ishqiy liniya (oshiq, ma’shuqa va raqib munosabatlari) kontekstida yuzaki qayd etib o‘tilgan, xolos. Ushbu ramzning ortida yotgan ijtimoiy fojia, tasavvufiy estetik qarashlar va falsafiy dualizmning Bobur shaxsiy hayoti prizmasidan o‘tib qanday transformatsiyaga uchraganligi masalasi chuqur tizimli va tipologik tahlilga muhtoj bo‘lib qolmoqda. Bu esa mazkur maqolaning ilmiy qiymatini yanada oshiradi.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu ilmiy tadqiqot ishida qo‘yilgan maqsad va vazifalarni to‘liq hamda xolis hal etish uchun adabiyotshunoslikning bir qator zamonaviy va sinovdan o‘tgan fundamental metodlaridan kompleks ravishda foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini tizimli-badiiy tahlil, qiyosiy-tarixiy (komparativistik), germenevtik (matnni sharhlash va ma’nolarini ochish) hamda lingvopoetik tahlil usullari tashkil etadi. Birinchi navbatda, shoir lirik devonidan [6] olingan g‘azal, ruboiy, qit’a va tuyuqlardagi “gul” va “xor” (tikan) so‘zlari operatsion lingvistik va poetik birliklar sifatida ajratib olindi. Tizimli-badiiy tahlil metodi yordamida mazkur so‘zlarning shunchaki lug‘aviy ma’nosi emas, balki she’riy matn ichida qanday estetik va falsafiy yuk tashiyotgani, ularning kontekstual o‘zgarishlari aniqlandi. Har bir bayt alohida mikrotizim sifatida o‘rganilib, uning umumiy she’r g‘oyasi bilan bog‘liqligi ko‘rsatildi. Qiyosiy-tarixiy metod orqali Boburgacha bo‘lgan Sharq mumtoz she’riyatida (xususan, Alisher Navoiy, Lutfiy va fors-tojik adabiyoti namoyandalari ijodida) “gul va xor” obrazlarining qo‘llanilishi va uning Bobur ijodidagi o‘ziga xos evolyutsiyasi solishtirildi. Bu usul an’anaviylik va individual o‘ziga xoslik chegaralarini aniq belgilashga xizmat qildi. Shoir hayoti va u yashagan ijtimoiy-siyosiy muhit faktlari bilan lirik asarlaridagi kayfiyat va ramzlar o‘rtasidagi bog‘liqlik qiyosiy o‘rganildi. Germenevtik tahlil usuli yordamida baytlardagi yashirin semantik qatlamlar, tasavvufiy ramzlar va falsafiy qarashlar sharhlandi. Boburning so‘z ortiga yashirgan ramziy ishoralari uning ijtimoiy qarashlari bilan sintez qilindi. Lingvopoetik metod esa matndagi badiiy san’atlar [7] — tazod (kontrast), tashxis (jonlantirish), mubolag‘aning qo‘llanilish mexanizmlarini, aruz vazni va qofiya tizimidagi ohangdoshlik tabiat unsurlari tasviriga qanchalik musiqiylik baxsh etayotganini tahlil qilish imkonini berdi. Tazod va tashxis kabi san’atlarning nazariy asosi A. Hojiahmedov tasnifiga tayanadi [7]: tazod qarama-qarshi tushunchalarni yonma-yon qo‘yib ma’noni kuchaytirsa, tashxis tabiat unsurlariga inson xislatlarini ko‘chiradi [7]. Tadqiqot obyektiga obyektiv yondashish va olingan natijalarning ishonchliligini ta’minlash maqsadida nazariy xulosalar matniy dalillar bilan izchil mustahkamlandi.

Natija va muhokama

Olib borilgan tizimli tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, Bobur lirikasida “gul va xor” munosabati dunyoning dialektik qonuniyatlarini aks ettiruvchi eng asosiy struktura hisoblanadi. Shoir tabiat hodisalari orqali inson hayotining o‘zgaruvchan tabiati, uning shodlik va g‘amdan iborat ekanligi haqidagi falsafiy g‘oyani ilgari suradi. Bobur ijodida gul — ideal olam, baxtli o‘tmish, yo‘qotilgan saltanat va osoyishta Vatan timsoliga aylansa, xor (tikan) — real voqelik, g‘urbat azoblari, taqdirning ayovsiz zarbalari va ijtimoiy muhojirlik ramzidir. Masalan, uning quyidagi g‘azaliga [6] e’tibor qilaylik:

Sendek manga bir yori jafokor topilmas,
Mendek sanga bir zori vafodor topilmas.
Bu shakl-u shamoyil bila xud hur-u parisen,
Kim jinsi bashar ichra bu miqdor topilmas.
Ag‘yor ko‘z olida-u ul yor ayon yo‘q,
G‘am xori ko‘ngul ichra-yu g‘amxor topilmas.
Ey gul, meni zor etmaki husnung chamanida,
Ko‘zni yumub ochquncha, bu gulzor topilmas.

Bobur seni chun yor dedi, yorlig‘ etgil,
Olamda kishiga yo‘q esa, yor topilmas.

Zahiriddin Muhammad Bobur nafaqat buyuk hukmdor va sarkarda, balki lirik poeziyaning eng nozik va dardli namoyandalaridan biridir. Uning ijodida ishq va hayotiy haqiqatlar doimo yonma-yon yuradi. “Topilmas” radifli g‘azali klassik sharq she’riyatining an’anaviy timsollari bo‘lmish “Gul” (yor/ma’shuqa) va “Xor” (tikan/g‘am/raqib) obrazlarining o‘ziga xos sintezi asosiga qurilgan. Klassik adabiyotda gul va tikan bir-biridan ajralmas tushunchalardir. Gul bor joyda tikan ham bo‘ladi. Bobur ushbu an’anani shunchaki takrorlamaydi, balki unga o‘zining hayotiy g‘urbatlari, vatansizlik dardi va ruhiy iztiroblari kontekstida yangicha ijtimoiy-psixologik yuk yuklaydi. G‘azalda gul — eng avvalo go‘zallik, mukammallik va mutloq ma’shuqa timsolidir. Shoir yorni to‘rtinchi baytda to‘g‘ridan-to‘g‘ri “Ey gul...” deb ataydi:

Ey gul, meni zor etmaki husnung chamanida,
Ko‘zni yumub ochquncha, bu gulzor topilmas.

Bu yerda “gul” va “gulzor” tushunchalari ikki xil ma’noda keladi:

1. Yorning husni va yoshligi: Inson hayotidagi eng go‘zal davr — yoshlik va go‘zallik xuddi bahorda ochilib, tezda so‘nadigan gul kabidir. Bobur yorga qarata: “Meni intizor qilma, seni go‘zalliging ham abadiy emas”, — deya eslatmoqda.

2. Dunyo va uning lazzatlari: Tasavvufiy nuqtai nazardan, bu dunyo bir gulzor bo‘lsa, undagi borliq va go‘zalliklar o‘tkinchi chechaklardir. Ko‘zni ochib yumguncha (bir lahzada) bu imkoniyatlar tugaydi. Shoir gul timsoli orqali yorning mag‘rurligini va takabburligini tanqid ostiga oladi. Chiroyli insonlar odatda shafqatsiz bo‘ladi, degan g‘oya qadimdan bor. Bobur gulning mana shu “nozlari” va “bexavotirligi”ga ishora qiladi. G‘azal matnida bevosita “tikan” so‘zi ishlatilmagan bo‘lsa-da, klassik she’riyat qonuniyatiga ko‘ra, gul so‘zi bor joyda uning tushunchaviy egizagi — “Xor” (Tikan) ma’nosi doimo yashirin bo‘ladi. Ushbu g‘azalda “xor” so‘zi va uning o‘zakdoshlari bir necha qatlamli ma’noga ega.

Shoir uchinchi baytda shunday deydi:

Ag‘yor ko‘z olida-u ul yor ayon yo‘q,
G‘am xori ko‘ngul ichra-yu g‘amxor topilmas.

Bu baytdagi “g‘am xori” — ko‘ngilga sanchilgan g‘am tikanidir. Inson yuragiga sanchilgan jismoniy tikan odamni qanchalik azoblasa, yorning hijroni, hayotning qiyinchiliklari va yolg‘izlik dardi oshiq qalbiga xuddi shunday sanchiladi. Bobur o‘z qalbini g‘am tikanlari bilan to‘lgan xarobaga o‘xshatadi. Birinchi baytdagi “Mendek sanga bir zori vafodor topilmas” misrasidagi “zor” so‘zi ham xorlik, ya’ni ishq yo‘lida o‘zini past tutish, hokisorlik ma’nosini beradi. Oshiq ma’shuqaning guli qarshisida o‘zini xor (tikan) kabi his qiladi. Gul balandda, mag‘rur turadi; tikan esa pastda, tuproqda uning poyini qo‘riqlaydi. Mumtoz adabiyotda gulni o‘rab turgan tikanlar ko‘pincha “ag‘yor” (begonalar, raqiblar) deb talqin qilinadi. Ular oshiqning gulga (yorga) yetishishiga yo‘l qo‘ymaydi. Boburning “Ag‘yor ko‘z olida-u ul yor ayon yo‘q” deyishi — atrof tikanlar (raqiblar) bilan to‘la, ammo u orzu qilgan haqiqiy gul (yor) ko‘rinmayapti, degan iqrordir. Bobur ushbu g‘azalda qarama-qarshi tushunchalarni (Tazod san’ati) nihoyatda mahorat bilan qo‘llagan. Gul o‘z tabiati bilan jafokor, chunki uning tikani bor, odamni jarohatlaydi. Oshiq esa bechora (zor va xor), har qanday jafoga chidaydi.

Tashqi dunyoda yorning husni chaman kabi gullab-yashnamoqda, ammo oshiqning ichki dunyosida (ko‘nglida) faqat g‘am tikanlari o‘sib yotibdi. Tashqi go‘zallik va ichki va’ronalikning

bunday to‘qnashuvi asarning emotsional ta’sirini kuchaytiradi. G‘azalning so‘nggi baytida Bobur o‘z-o‘ziga taskin beradi. Shoir agar yor uni bir marta bo‘lsa ham “yorim” deb atagan bo‘lsa, barcha tikanlarga (jafolarga, ag‘yorlarga, g‘amlarga) chidab, sadoqat ko‘rsatish lozimligini aytadi. Chunki bu dunyoda chinakam yor topish amri maholdir. Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, Zahiriddin Muhammad Boburning “Topilmas” g‘azalidagi gul va tikan tahlili shunchaki oshiqona noz-karashma emas. Bu — hayotning go‘zalligi va qiyinchiliklari, quvonchi va iztiroblari o‘rtasidagi doimiy kurashning badiiy ifodasidir. Shoir gulning nafosatidan zavqlanish bilan birga, hayot tikanlarining sanchig‘iga mardonavor chidash kerakligi haqidagi falsafiy xulosaga keladi.

Xulosa

Zahiriddin Muhammad Boburning tabiat lirikasida, xususan, “gul va xor” (tikan) qarama-qarshiligi misolida olib borilgan ijtimoiy-falsafiy va lingvopoetik tadqiqotlar quyidagi fundamental ilmiy xulosalarni shakllantirish imkonini beradi:

Birinchidan, Bobur she’riyatidagi “gul va xor” munosabati shunchaki Sharq mumtoz poeziya an’analarining formal takrori yoki quruq estetik bezagi emas. Shoir taqdirining o‘ta murakkab va dramatik kechishi — taxt uchun kurashlar, Vatan judoligi, doimiy harbiy safarlar va Hindistondagi muhojirlik hayoti — bu an’anaviy ramzlarni chuqur ijtimoiy-biografik mazmun bilan boyitdi va ularga kuchli psixologik yuk yukladi.

Ikkinchidan, falsafiy-dialektik jihatdan ushbu oppozitsiya borliqning azaliy va abadiy dualizmini (yaxshilik va yomonlik, quvonch va qayg‘u, visol va hijron) aks ettiruvchi mikromodel ekanligi isbotlandi. Bobur ijodida “gul” — erishilmagan yoki boy berilgan oliy maqsad (Vatan, tinch saltanat, baxtli yoshlik) ramzi bo‘lsa, “tikan” (xor) — ijtimoiy adolatsizlik, yolg‘izlik, sotqinlik va g‘urbat iztiroblarining moddiylashgan poetik shaklidir.

Uchinchidan, shoirning poetik mahorati tabiat detallarini inson ruhiyati bilan parallellikda va kuchli kontrast (tazod) asosida tasvirlashida yaqqol namoyon bo‘ladi. Bobur an’anaviy tasavvufiy va oshiqona timsollarni real hayotiy voqelik bilan sintez qila olganligi sababli, uning lirikasida kuchli realizm va samimiylik ustuvorlik qiladi. Gul ochilganda ham tasalli topa olmaydigan “xor ko‘ngil” obrazi mumtoz she’riyatimizda psixologizmning yorqin namunasidir. Yakuniy xulosa sifatida aytish mumkinki, Bobur ijodida “gul va xor” konsepti shoir dunyoqarashi, estetik ideali va shaxsiy qismatini ochib beruvchi eng quvvatli falsafiy-badiiy koordinatalar o‘qidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Azizxo‘jayev E. Boburnoma va uning badiiy-estetik tabiati. – T.: Sharq, 1999. – 190 (Azizkhodjayev E. The Baburnama and its artistic and aesthetic nature.)
2. Hasanov S. Bobur she’riyatining poetikasi va badiiy takomili. – T.: Fan, 2012. – 245 (Hasanov S. The poetics and artistic evolution of Babur’s poetry.)
3. Yoqubov H. Bobur lirikasining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari. – T.: Fan, 1983. – 186 (Yakubov H. Ideological and artistic features of Babur’s lyrics.)
4. Abdug‘afurov A. Bobur ijodiyoti masalalari (Monografiya). – T.: O‘qituvchi, 1991. – 210 (Abdugafurov A. Issues of Babur’s creative work (Monograph).)
5. Mallayev N. O‘zbek adabiyoti tarixi. – T.: O‘qituvchi, 1976. – 480 (Mallayev N. History of Uzbek literature.)
6. Zahiriddin Muhammad Bobur. Asarlar. Uch jildlik. 1-jild: Devon (G‘azallar, ruboiylar, qit’alar, fardlar). – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 2008. – 340 (Zahiriddin Muhammad Babur. Works. In three volumes. Vol. 1: Divan (Ghazals, rubais, qitas, fards).)
7. Hojiahmedov A. Mumtoz badiiyat sirlari. – T.: Sharq, 2003. – 150 (Hojiahmedov A. Secrets of classical artistry.)